

## NOMA JANRI VA UNING TASNIFI, SHAKLLANISHI

*Samarqand davlat universiteti Markaziy  
Osiyo xalqlari tillari va madaniyati  
instituti talabasi **Xamidova Ruxshona**  
Ilmiy rahbar: dots. **Dilorom Muminova***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada noma janrining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tildi. Uning boshqa janrlardan farqli jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, bevosita, mumtoz janrning taraqqiy jarayonini ko'rib chiqib, bugungi shakligacha bo'lgan jarayon "Muhabbatnoma", "Dahnoma" kabi dostonlar misolida tadqiq ishlari amalga oshirildi. Janrning shakliy va mazmuniy xarakterini ochishga bag'ishlangan baytlar misolida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Noma, mazmun, shakl, xarakter, taraqqiyot, "Muhabbatnoma", "Dahnoma" janr.

**Annotation:** This article discusses the specific characteristics of the noma genre. Its distinguishing features compared to other genres are analyzed. In addition, the development process of this genre is examined, and its evolution up to the present form is studied based on works such as "Muhabbatnoma" and "Dahnoma". An attempt is made to reveal the structural and semantic nature of the genre.

**Keywords:** Noma, content, form, character, development, "Muhabbatnoma", "Dahnoma"

**Kirish:** O'zbek mumtoz adabiyotida janr masalasi muhim nazariy muammolardan biri sanaladi. Har bir janr o'ziga xos shakliy va mazmuniy xarakterga ega bo'lib, u adabiy tafakkurning rivojlanish jarayonida shakllanadi va takomillashib boradi. Shunday janrlardan biri — noma janri bo'lib, u sharq mumtoz adabiyotida alohida o'ringa ega. Noma janri, asosan, maktub shaklida yozilishi, unda muallifning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va muayyan shaxsga murojaati ifodalanishi bilan ajralib turadi.

Mazkur janrning ildizlari qadimiy adabiy an'analarga borib taqaladi. U dastlab fors-tojik, so'ngra o'zbek adabiyotiga kirib kelgan. Nomanavislik na'munalari sifatida "Muhabbatnoma", "Taashshuqnoma", "Dahnoma", "Latofatnoma"<sup>1</sup> kabi asarlar tahlil qilinadi. Ushbu janrdagi o'ziga xosliklar yoritiladi. Bu mavzuda X.Bektemirov, N.Mallayev, A.Hayitmetov, E.Rustamov, B.Valixo'jayev, H.Eshonqulov, S.G'aniyeva, M.Jamolova<sup>2</sup> kabi adabiyotshunoslar ham izlanishlar olib borishgan.

<sup>1</sup> Raхмонов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари.11-жилд. Тошкент:"Фан" 2007

<sup>2</sup> Бектемиров Х. Исследование языка произведений Юсуфа Амири (I половины XV века). Канд. дисс., – Ташкент: 1973; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқитувчи, – Тошкент: 1976; Ҳайитметов А.А. "Навоий ва Юсуф

Asosiy qism: Noma janri Sharq klassik adabiyotida keng tarqalgan badiiy shakllardan biri biridir. Bu janr na'munalari maktub tarzida bayon qilinishi bilan ajralib turadi. Unda muallifning ichki kechinmalari, muhabbat, sadoqat, hijron va visol kabi tuyg'ular obrazli ifodalanadi. Noma janrining asosiy xususiyati shundaki, unda murojaat aniq bir shaxsga qaratilishi va asar dialogik ruhda kechishidir.

O'zbek adabiyotida noma janri o'z o'rniga egadir. Noma, aslida, fors-tojik tilidan olingan bo'lib, xat, maktub ma'nolarini anglatadi<sup>3</sup>. Yetarli mavqega ega bo'lgan liro-epik janrlardan hisoblanadi. Oshiq o'z suyuklisiga yozgan dil izxori tarzida yozilganligi uchun noma deb nom olgan. Noma so'zining lug'aviy ma'nolari ham bir nechta: xat, maktub, yozilgan narsa, farmon, yorliq va kitob kabi. Noma atamasi Navoiy asarlarida o'zi va boshqa so'zlar bilan birikib kelganda turli ma'nolarni anglatgan. Masalan:

Noma- xat, maktub, risola;

Nomayi iqbol-mehribonchilik xati;

Noma sabt etmak- xat yozmoq;

Nomayi a'mol- tiriklikda qilingan savob va gunohlar<sup>4</sup>.

Noma janrining ham boshqa janrlar qatori o'z tizimi, talablari va qoliplari mavjud. Noma janrining dastlabki shakllarini buyumlarda so'ng og'zaki faoliyatda, keyin esa yozma adabiyot, xususan, arab. Fors-tojik adabiyotida uchratish mumkin. Masalan, "Qutadg'u Bilig"<sup>5</sup> asarida ham maktub emas, buyumlar orqali shohlar orasida ma'lumot anglashilish jarayoni bor: chavgon, shar kabi. Nomalar dastlab turli mavzularda yozilgan, Vaqtlar o'tib bu oshiq-mashuqlar o'rtasidagi dil izhorlari mazmuniga yog'rilgan.

Mazkur janrning shakllanishida xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot an'analari muhim rol o'ynagan. Dastlab oddiy maktublar shaklida paydo bo'lgan noma janri keyinchalik badiiylashgan. Unda tasviriy vositalar — tashbeh, isti'ora, mubolag'a kabi badiiy san'atlar keng qo'llanilib, matnning ta'sirchanligi oshiriladi. Dastlabki nomalar X-XV asrlarda yaratildi. Birinchi noma sifatida Faxriddin Gurgoniyning "Vis va Romin"<sup>6</sup> dostonini olish mumkin. Bu epik asar tarzidagi noma hisoblanadi. Masnaviy yo'sinidagi ishq muhabbat mavzusidagi nomalar esa ko'plab tadqiq obyekti bo'lib

Амирий" // Гулистон 1987. 12-сон, 26-28 б; Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – Москва: ИВЛ, 1963; Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. Фан, – Тошкент: 1974; Vohidov R., Eshonqulov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. – Тошкент: 2006; Фаниева С. "Низомий муғаннийномалари Низомий ва ўзбек адабиёти" // Илмий анжуман материаллари. – Тошкент. ТИУНМБ, 2007. 56-61-б; Фаниева С. "Муғанний, биёр он навое ғариб..." // Овози тожик 12-декабрь, 2007; Фаниева С. "Шарқ мумтоз адабиётида муғаннийномалар" // Шарқ тароналари – Тошкент: 2007, 62-66 б; Жамолова М. XIV–XV асрлар ўзбек адабиётида нома жанри. Номз. дисс. НамДПИ 1992;

<sup>3</sup> Навоий асарлари луғати. – Т.; 1972. – Б. 466.

<sup>4</sup> Навоий асарлари луғати. – Т.; 1972. – Б. 466.

<sup>5</sup> Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Академнашр, 2015. –124 б.

<sup>6</sup> Вис ва Ромин. – Душанбе: 1966. –324 б.

kelgan. Ular qatoriga Avhadiyning “Dahnoma”si, Kirmoniyning “Muhabbatnoma”si, Ibn Imodning “Dahnoma”<sup>7</sup> kabi asarlari kiradi.

Nomalar xarakteriga qarab, turli guruhlar bo’linadi:

1. Nazmda yozilib, noma so’zi bilan belgilangan asarlar;
2. Noma- masnaviy doston ma’nosida;
3. Noma- she’riy maktub shaklida yozilgan asar ;
4. Noma- sayohatdan olingan xotiralar she’riy tarzda ifodalangan asar;<sup>8</sup>

Har bir guruhlar bo’yicha yaratilgan asarlar mavjud, albatta. Keyinchalik ushbu janr boshqa ijodkorlarni ham o’ziga jalb etadi. Kirmoniyning 1322- yili yozilgan “Muhabbatnomayi Sohibqiron” yoki “Dahnoma”, so’ngra uning o’g’li Ibn Imod “Dahnoma” sini yaratadi. Noma eski o’zbek tilida “Bildirgulik” nomi bilan ham atalgan. Turkiy adabiyot namunalari — masalan, “Alpomish”, “Qutadg’u bilig”, “O’g’uznoma” hamda “Devoni lug’otit turk”<sup>9</sup> kabi asarlarda ayrim o’rinlarda noma unsurlariga xos jihatlar uchrasa-da, ular to’liq holda noma janriga mansub mustaqil asarlar sifatida baholanmaydi. O’zbek adabiyotidagi ilk noma Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidir.

Ko’ngul bahrinda ko’p gavharlaring bor,  
Ochunda parsi daftarlaring bor<sup>10</sup>.

Bu nomaga javob tarzida Xo’jandiyning “Latofatnoma”, Said Ahmadning “Taashshuqnoma”, Amiriyning “Dahnoma” asarlarini ko’rish mumkin. Undan so’ng esa Sayid Qosimiyning “Haqiqatnoma”, “Sadoqatnoma”<sup>11</sup> kabi nomalari yozilgan.

**Xulosa:** Ko’rinadiki, noma janriga ilk bor XI asrda murojaat qilingan. Bu janr avval fors-tojik va ozarbayjon adabiyotida shakllanib, rivojlangan, keyinchalik esa Xorazmiy ijodi orqali o’zbek adabiyotida ham yuzaga kelgan. Ko’plab nomalar syujet va tuzilish jihatidan o’xshash bo’ladi. Masalan, Avhadiyning “Dahnoma” asari muqaddima va o’nta oshiqona bobdan iborat<sup>12</sup>. Shuningdek, Kirmoniyning “Muhabbatnomayi Sohibdilon”<sup>13</sup> asari ham shu shaklda yozilgan. Nomalarda mazmun asosan ishqiy yo’nalishda bo’lib, unda maktub muallifi va uning kimga yo’llangani aniq ko’rsatiladi. Bu esa noma janrini boshqa janrlardan ajratib turadi. Noma janrining asosiy xususiyatlaridan biri — asarlarning odatda bir xil vaznda, ko’pincha masnaviy shaklida yozilishidir. Ular ko’proq oshiqning yoriga yozgan maktublari yoki o’zaro maktub almashuvi tarzida quriladi. Turkiy tildagi nomalar esa shakl va mazmun

<sup>7</sup> Muminova D. Nomanavislik an’anasi va turkiy she’riyatda lirik janrlar taraqqiyoti (XIV-XV asrlar she’riyati misolida). Phd diss. – S.; 2023. 23-bet.

<sup>8</sup> Shu kitob, 15-bet

<sup>9</sup> Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. 1-том. – Тошкент: 1960. -17 б.

<sup>10</sup> Муборак мактублар. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент: 1987. 11-12 бетлар.

<sup>11</sup> Muminova D. Nomanavislik an’anasi va turkiy she’riyatda lirik janrlar taraqqiyoti (XIV-XV asrlar she’riyati misolida). Phd diss. – S.; 2023. 122-bet

<sup>12</sup> Shu kitob, 26-bet

<sup>13</sup> Насимхон Раҳмон. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 11-жилд. – Тошкент: Фан, -95 б.

jihatan xilma-xil bo‘lib, ularda qofiya va radiflar orqali ma’no yanada aniq ifodalanadi. Bundan tashqari, bu janr g‘azal, fard va qit’a kabi boshqa janrlarning shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev B. O‘zbek adabiyoti tarixi.- Toshkent: “O‘qituvchi”.1967.
2. Бектемиров Х. Исследование языка произведений Юсуфа Амири (I половины XV века). Канд. дисс., – Ташкент: 1973;
3. Вис ва Ромин. – Душанбе: 1966. -324 б.
4. Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – Москва: ИВЛ, 1963;
5. Ҳайитметов А.А. “Навой ва Юсуф Амирий” // Гулистон 1987. 12-сон, 26-28 б;
6. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: “O‘qituvchi”. 1980.
7. Ibrohimov M. O‘zbek sovet poeziyasi janrlarining tarkib topishi.-Toshkent: “Fan”.1983
8. Жамолова М. XIV–XV асрлар ўзбек адабиётида нома жанри. Номз. дисс. НамДПИ 1992;
9. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқитувчи, – Тошкент: 1976;
- 10.Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. 1-том. – Тошкент: 1960.
- 11.Муборак мактублар. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент: 1987.
- 12.Мо’minova D. Nomanavislik an’anasi va turkiy she’riyatda lirik janrlar taraqqiyoti (XIV-XV asrlar she’riyati misolida).Phd diss. – S.; 2023.
- 13.Навой асарлари луғати. – Т.; 1972. – Б. 466.
- 14.Раҳмонов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари.11-жилд. Тошкент:"Фан" 2007
- 15.Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. – Тошкент: 2006;
- 16.Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Академнашр, 2015. –124 б.